

ALTERNATIVA FILM AWARDS 2023-yilgi nomzodlarning short-listini e'lon qiladi.

Alternativa Film Awards nomzodlar ro'yxatiga Markaziy Osiyo va boshqa Osiyo davlatlaridan 14 ta to'liq metrajli va 7 ta qisqa metrajli filmlar kiritilgan. G'oliblar 2023-yil 2-dekabr kuni Olmaota shahrida bo'lib o'tadigan birinchi taqdirlash marosimida e'lon qilinadi.

Tanlov komiteti 8 ta badiiy va 6 ta hujjatli filmni to'liq metrajli filmlar finalchilari ro'yxatiga kiritdi. Bular Asxat Kuchinchirekovning (Qozog'iston) "Bauirina Salu" filmi, Mirlan Abdiqaliqovning (Qirg'iziston) "Kelin o'g'irlanishi", Janil Jusupjanning "Vaxan asiri" (Qirg'iziston), Mixail Borodinining "Cotton 100%" (O'zbekiston), Katerina Suvorovaning (Qozog'iston) "Qoryqpa", Shokir Xoliqovning (O'zbekiston) "Yakshanba", Sharipa O'rxbayevaning (Qozog'iston), Nurjamal Karamoldoeva va Sultana Usuvalievalarning "Keyingi kim?" (Qirg'iziston), Anna Isabel Matutinaning (Filippin) "12 hafta", Reza Jamalining (Eron) "Bolalarsiz qishloq", Yujon No, Yun Li, Dabin An va Soyeon Kimlarning (Janubiy Koreya) "Haeil", Xaobam Paban Kumarning (Hindiston) "Yusufning o'g'li", Rajan Kathet va Sunir Pandey (Nepal) "Qishki ta'til bo'lmaydi", Lubdxak Chatterjining (Hindiston) "Olov va suv shivirlari" filmlaridir.

Faqatgina Markaziy Osiyo mintaqasidan qabul qilingan qisqa metrajli filmlar ro'yxatiga 7 ta asar kiritildi: Tolomush Janybekovning "Qushlar nima haqida kuylaydi" (Qirg'iziston), Guzel Duishenqulovaning "Tosh kelin" (Qirg'iziston), Tomiris Orozoevaning "Bozor" (Qirg'iziston), Kamila Rustambekovaning (O'zbekiston) "Ertak", Rustem Dastanulining (Qozog'iston) "Sari-omir", Dastan Madalbekovning (Qirg'iziston) "Otasingning o'g'li" va Shug'iliy Serjanning (Qozog'iston) "Kechki shamol" filmlari.

Alternativa Film Awards nomzodlari ro'yxati mustaqil ekspert xulosasiga asoslanib, Markaziy Osiyo va boshqa Osiyo davlatlaridan festivallar va madaniyat markazlari kuratorlari, kinotanqidchilar, rejissyorlar, prodyuserlar va madaniyat jurnalistlarini o'z ichiga organ, komissiya tomonidan tuziladi. Mukofot uchun jami 25 davlatdan 350 dan ortiq filmlar taqdim etilgan. Short-list alternativa.film mukofotining rasmiy saytida e'lon qilingan.

Liza Surganova, Alternativa Film Awards rahbari: "Alternativa Film Awards mukofotining birinchi yilidayoq 25 davlatdan arizalarни jalb qilish va shu bilan birga Markaziy Osiyo kinosiga e'tiborni qaratish orqali uning xalqaro maqomini mustahkamlashga muvaffaq bo'lganimizdan juda mammunmiz. Short-listga kiritilgan badiiy filmlarning yarmidan ko'pi fokus mintaqani ifodalaydi. Mustaqil tanlov komissiyasi a'zolariga mukofotga taqdim etilgan 350 dan ortiq filmlarni ko'rib chiqib, odilona qaror qabul qilib, turli mavzudagi va turli mamlakatlardan filmlarni nomzod qilib ko'rsatgan, hamda nomi endi chiqayotgan, o'zlarining professional faoliyatini endi boshlayotgan, rejissyor va mualliflarga e'tibor

qaratganiga minnatdormiz. Endilikda xalqaro hakamlar hay'atining birinchi Alternativa Film Awards g'oliblarini aniqlaydigan qarorini kutmoqdamiz".

Gulnora Abikeeva, Alternativa Film Awards tanlov komissiyasi a'zosi: "Biz tanlagen filmlar qaysidir ma'noda Markaziy Osiyoda kinoteatrлarda odatda namoyish etiladigan kinoga "alternativa" (muqobil)dir. Ya'ni, oddiy ko'ngilochar kinoga muqobildir. Ular bizni o'yantiradi, ijtimoiy muammolarni ko'taradi, bizni haqiqatga boshqacha nazar tashlashga undaydi. Bu esa, hayotimizni o'zgartira oladigan film ekanligini anglatadi. Biz buni ijtimoiy impakt deb atadik: odamlar uchun, jamiyat uchun, har birimiz uchun. Inson huquqlari, voqelikni o'zgartirishdagi shaxsning roli, migratsiya muammolari, gender tenglik, tsivilizatsiya muammolari – bularning barchasi ushbu filmlarda yaqqol aks etgan. Tanlov muvaffaqiyatli o'tdimi? Albatta, bunga nafaqat arizalar soni, balki yuborilgan filmlarning sifati ham dalolat beradi, bu esa, o'z navbatida, mukofotimiz zaruriyatini ko'rsatadi".

Mukofot g'oliblarini Osiyo va Yevropa kinoijodkorlari hamda jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat hakamlar hay'ati aniqlaydi. Bu yilgi hakamlar hay'atiga filippinlik kinorejissyor va Kann kinofestivalining sovrindori Briante Mendoza boshchilik qiladi. Unga Gita Saedi Kili, Udaya Prasanna Vitanage, Rintu Tomas, shuningdek, Bayan Alaguzova, Vyacheslav Abramov, Ruslan Akun, Umida Axmedova va Anna Chubinidze hamkorlik qilishadi. Alternativa Film Awards tashkiliy qo'mitasi nomzodlar va mukofot g'oliblarini aniqlashda ishtirok etmaydi.

Yangi **Alternativa Film Awards** kino mukofoti keng auditoriyani jalb qilgan holda, ijobiy ijtimoiy o'zgarishlar sababchisi bo'lishi mumkin bo'lgan filmlarni qo'llab-quvvatlaydi. Bular muhim ijtimoiy va madaniy masalalarni hal qiluvchi, shuningdek, odamlar va mahalliy jamiyatlar hayotiga ta'sir ko'rsatadigan asarlardir. Alternativa Film mukofotlari filmlarning badiiy fazilatlarini va ularning ijtimoiy impaktini (ta'sirini) baholab, kino mukofoti va impakt mukofotlarini birlashtiradi.

2023 yilgi mukofotlarning umumiyligi mukofot jamg'armasi 100 000 AQSh dollarni tashkil etadi va besh nominatsiya bo'yicha taqsimlanadi: "**Future Voice**" (kino sanoati va jamiyatdagi o'zgarishlarga katta hissa qo'sha oladigan rejissyorga), "**Spotlight**" (muhim mavzuni yoritib beruvchi filmga) yoki ilgari keng omma e'tiboridan chetda qolgan hikoya), **Alter** (muhim ijtimoiy muammolar haqida va ijtimoiy o'zgarishlarga kuchli turtki bo'lgan filmga), **Nativa** (milliy yoki madaniy o'ziga xoslik mavzulariga bag'ishlangan filmga) va **Short Awards** (Markaziy Osiyoning markaziy mintaqasidan qisqa metrajli filmga). Bundan tashqari, marosimda alohida e'tirofga sazovor bo'lgan filmga maxsus mukofot (pul mukofotini nazarda tutmaydi) "**Resonance**" topshiriladi. Alternativa Film Awards ierarxiyalarni yaratmaydi - barcha mukofotlar teng va 20 000 dollarlik bir xil pul mukofotiga ega.

Alternativa Film Awards 2023-yilda Markaziy Osiyoda inDrive global texnologiya kompaniyasi tomonidan boshlangan Alternativa film xalqaro nodavlat loyihasining bir qismidir. Loyiha rivojlanayotgan kino sanoatining kinoijodkorlarini qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilish uchun yaratilgan bo'lib, uning vazifasi dunyo haqidagi tushunchamizni kengaytira oladigan va uni yaxshi tomonga o'zgartirishga yordam beradigan ijodkorlarni xalqaro mashhurligini oshirish, ularni professional o'sishi uchun resurslar bilan ta'minlash, shuningdek, mahalliy kino sanoati va jamiyatlarning rivojlanishiga kuchli turtki beradi. Alternativa Film Awards "ko'chmanchi" loyiha bo'lib, mamlakatdan mamlakatga ko'chib o'tadi, geografiyasini asta-sekin kengaytiradi. 2023-yildagi asosiy tashabbuslar Olmaota va Bishkekdag'i Alternativa Film Laboratoriyalari doirasidagi uchta ta'lim dasturi, shuningdek, muhim hodisa – 2 dekabr kuni Olmaota shahrida bo'lib o'tadigan xalqaro Alternativa Film Awardsning birinchi marosimidir.

Media uchun kontaktlar

Anna Vasilyeva

anna.vasilyeva@alternativa.film